

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 144 (1470), 2025-yil 16-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA ISTIQBOLLI TASHABBUSLARNI YANADA QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy o‘rnatilishini ta’minlash jarayonida keng aholi qatlamining ishtirokini hamda ularning turli sohalaridagi istiqbolli tashabbuslarini rag‘batlantirish va innovatsion faolligini yanada oshirishning samarali mexanizmlarini joriy qilish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar

1. Quyidagilar aholining istiqbolli tashabbuslarini rag‘batlantirish chora-tadbirlarining asosiy maqsadlari etib belgilansin:

a) samarali va xalqchil islohotlarni amalga oshirishda keng jamoatchilik va jamiyatning turli qatlamlari vakillari, xususan, yetuk mutaxassislar, yoshlar, tadbirkorlar, faol fuqarolar va vatandoshlarning (keyingi o‘rinlarda — keng aholi qatlami) ishtirokini qo‘llab-quvvatlash;

b) mamlakat raqobatbardoshligini

oshirish, yangi texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini integratsiya qilish;

d) istiqbolli tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida keng aholi qatlami uchun ochiq muloqot maydonini yaratish;

e) zamonaviy, ilg‘or g‘oyalar va istiqbolli tashabbuslarni saralash va tanlab olishning samarali mexanizmlarini joriy qilish.

II. “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini o‘tkazish

2. 2025-yildan boshlab har yili “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini (keyingi o‘rinlarda — Forum) o‘tkazib borish amaliyoti joriy qilinsin.

3. Belgilansinki:

a) Forum “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish jarayonida keng aholi qatlamining istiqbolli tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga hamda ularning faolligini rag‘batlantirish va keng targ‘ib qilishga qaratilgan;

b) Forum o‘tkaziladigan ustuvor yo‘nalishlar har yili “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tomonidan belgilab beriladi;

d) Forumga umumiy tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish Tashkiliy qo‘mita, istiqbolli tashabbuslarni baholash Mentorlar kengashi tomonidan amalga oshiriladi;

e) Strategik islohotlar agentligi Forumga kelib tushgan istiqbolli tashabbuslarni yig‘ish, ularning yagona ro‘yxatini shakllantirish, maxsus kraud platformaga joylashtirish va e‘lon qilib borishga hamda Forum natijasi bo‘yicha ma‘qullangan istiqbolli tashabbuslarning mas‘ul vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilishini muvofiqlashtirishga mas‘ul hisoblanadi;

► Davomi 2-betda



ISTIQLOL AKS ETAR MAMNUN KO‘ZLARDA...



Tarix sahnasida shunday davrlar bo‘ladiki, ular yillar va asrlar osha nafaqat taqvim varaqlarida, balki millatning xotirasida, ruhiyati va kelajak avlodlarining tafakkur tarzida o‘chmas iz qoldiradi. Bunday davrlar oddiy vaqt oqimidan ajralib turadi, ular millat hayotidagi burilish nuqtalari, tarixiy fursatlardir. Bugun biz, hech bir mubolag‘asiz, ana shunday muhim, ana shunday tarixiy bir davrda yashamoqdamiz.

Mustaqil O‘zbekistonimizning shonli 34 yillik to‘yini nishonlash arafasida ekanmiz, o‘tgan yillarga, bosib o‘tilgan murakkab, ayni paytda sharaflil yo‘larga teran bir nigoh tashlaymiz. Bu nigoh zamirida bugungi kunimizning yorug‘ manzaralaridan cheksiz

g‘urur va iftixor tuyg‘usi jo‘sh uradi. Bu g‘urur, bu ko‘tarinkilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. Uning poydevorida xalqimizning asriy orzu-armonlari, tiklangan qadriyati, bunyodkorlik shijoati va eng muhimi, ana shu ezgu intilishlarni bir maqsad

sari birlashtira olgan, millatning dardini o‘z dardi deb bilib, uni ulug‘ ishlarga safarbar etgan davlatimiz rahbarining qat‘iy irodasi va fidokorona mehnati mujassam.

► Davomi 2-betda

Oltin avlod qanoti YANGI O‘ZBEKISTON YO‘LI – ADOLAT, ISHONCH VA IMKONIYAT



Yangi O‘zbekistonning insonlar hayotidagi bitta muhim jihatini so‘rasha, hech shubhasiz, ishonch deb javob berardim. Ishonch insonga cheksiz quvvat beradi. Shu bois, odamlar qalbini yaxshi ma‘noda zabt etish, ishonchini oqlash oson emas. Chunki bu tuyg‘u inson qalbining eng nozik qo‘riq joyidir. Yangi O‘zbekistonni yaratishday katta maqsad oldimizga qo‘yilgach, xalqimiz bunga katta ishonch bildirdi va shu g‘oya atrofida birlashdi. Buning siri nimada deb so‘raganlarga Hazrat Navoiyning quyidagi bayti bilan javob bergim keladi.

Nekim o‘z qoshingda erur noravo,
Ulusqa oni ko‘rma aslo ravo.

Ya‘ni Hazrat o‘zingga ravo ko‘rmaydigan narsalarni xalqqa ham ravo ko‘rma, insonni qadrla demoqchi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar esa “Inson qadri uchun” shiori asosida start oldi va bu o‘zgarishlar qisqa vaqtda samara bera boshladi. Shu bois, bugun xalqimiz qalbida ertangi kunga komil ishonch paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz shu yil 8-iyul kuni imzolagan “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi tarixiy qarori sohada yangi davrni boshlab berdi.

► Davomi 3-betda



“Yashil” taraqqiyot

“ZARCHOB-3” GESI ELEKTR ISHLAB CHIQARISHGA TAYYOR

Surxondaryo viloyatida gidroenergetik quvvat 8 yilda 9 barobarga oshdi

Surxondaryo viloyatining janubi-sharqidagi tog‘lar bag‘ridan viqor bilan oquvchi To‘palang daryosi go‘yo ming yillardan buyon tog‘u toshlarga sir aytib kelayotgandek. Bahorda qorlar eriganda u shiddatli va to‘lqinli, yozda esa tiniq hamda sokin. Ana shu daryo ustida barpo etilgan ulkan gidroinshoot — “To‘palang” suv ombori bugun nafaqat suv, balki hayot, quvvat va insonch timsoliga aylangan.

Yassi vodiylarni suv bilan to‘yintiruvchi, yuz minglab gektar yerga hayot bag‘ishlovchi bu inshoot inson aqli va tabiat qudratining uyg‘unligi asosida bugun toshqinlarning oldini olishda, vohaning suv va elektrga talabini, shuningdek, aholining ichimlik suvga ehtiyojini qondirishda eng muhim manbadir. Tabiat inijlik qilgan paytlar — yomg‘ir kam, suv sathi tushib ketgan

chog‘larda ham “To‘palang” suv ombori vohani obihayot bilan ta‘minlab turadi. Uning yonida qad rostlagan gidroelektr stansiyalar esa kunu tun ishlab, elektr nuri tarqatadi. Suv omborining qiyaliklarga tayanib cho‘zilgan sathi, kuchli oqimni jilovlagan devorlar, ko‘z ilg‘amas kengligi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan.

► Davomi 4-betda

“AGRO IN VITRO”dagi HAYOT

ILM VA TABIAT UYG‘UNLIGIDA BARPO ETILAYOTGAN BOG‘LAR



Inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik butun hayotning, iqtisodiyotning mustahkam tayanchi sanaladi. Qishloq xo‘jaligi esa ana shu munosabatning eng qadimiy va hayotiy ko‘rinishidir. Insonning yerga ekin ekish, bog‘ barpo etish, uning mevasidan foydalanish ehtiyoji tugamaydigan jarayon.

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishlari tufayli ob-havo sharoiti kutilmagan holda keskin o‘zgarib, ba‘zan bahorda kunning isib ketishi yoki xirmon ko‘tarilib, hosil terib olinadigan paytda to‘satdan kunlarning sovib ketishi, hattoki qor yog‘ishi oddiy holga aylanib qoldi. Bunday tabiiy hodisalar kunu tun mehnat qilib, yerdan daromad topishni kutayotgan dehqonlar uchun og‘ir sinov hisoblanadi. Masalan, bir bog‘bon yillab

mehnat qilib, mevali daraxt parvarishlaydi. Nihoyat hosil olaman, daromad ko‘rman degan vaqtda sovuq urib, butun mehnati zoye ketadi. Yoki so‘nggi yillarda yanada kuchayib borayotgan suv tanqisligi tufayli butun hosili suvsizlikdan qurib bitadi.

► Davomi 4-betda

SUN‘IY INTELLEKTNING MILLIY MODEL

100 TA LOYIHA, 100 MING
MUTAXASSIS:

sohada raqobatbardosh va yuqori
malakali kadrlar yanada ko‘payadi



5

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N IISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA ISTIQBOLLI TASHABBUSLARNI YANADA
QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

f) Forumni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar 2025-yilda Strategik islohotlar agentligini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan, 2026-yildan boshlab Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutib boriladi;

g) Forumni o‘tkazish joyini tegishli vositalar (bannerlar, videoroliklar, ekranlar, aloqa va boshqa vositalar) bilan ta‘minlash “Interforum” DUK tomonidan amalga oshiriladi;

h) Forumning endaument fondi ixtiyoriy mablag‘lar asosida shakllantiriladigan fond sifatida tashkil etiladi;

i) Forumda ma‘qullangan istiqbolli tashabbuslarni tijoratlashtirish va moliyalashtirishga “Biznesni rivojlantirish banki” ATB va boshqa tijorat banklari, shuningdek, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mas‘ul hisoblanadi.

III. Tashkiliy chora-tadbirlar

4. Quyidagilar:

a) “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

b) “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumining mentorlar kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

d) “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

e) “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini 2025-yilda o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Belgilansinki:

a) Forumga tayyorgarlik jarayonida kelib tushgan istiqbolli tashabbuslar top-50 va top-10 talik tartibida saralanadi;

b) Mentorlar kengashi tomonidan top-10 deb topilgan eng dolzarb istiqbolli tashabbuslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida o‘tkaziladigan Forumning yalpi majlisida muhokama qilinadi;

d) Forumning yalpi majlisini o‘tkazish yakunlari bo‘yicha ma‘qullangan istiqbolli tashabbuslarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi;

e) chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan istiqbolli tashabbuslarni amalga oshirish uchun kredit va grantlar ajratilishi, soliq, bojxona va boshqa rag‘batlantirish choralarini qo‘llanishi mumkin;

f) Forum doirasida kelib tushgan boshqa tashabbuslar Vazirlar Mahkamasiga davlat dasturlarini, tegishli soha, tarmoq yoki hududlarni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni shakllantirish maqsadida yuboriladi hamda Hukumat tomonidan

ularni amalga oshirish yuzasidan zarur choralar ko‘riladi.

6. Strategik islohotlar agentligi (B.Raxmatov) hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov), “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (S.Annaklichev) va “Interforum” DUK (B.Zufarov) bilan birgalikda ikki oy muddatda Forumda ishtirok etishni xohlovchi shaxslarni ochiq elektron ro‘yxatga olish, anketa to‘ldirish, istiqbolli tashabbusning profili va kun tartibi, dasturi, ishtirok etish shartlari, shuningdek, boshqa ma‘lumotlar olish imkoniyatini beruvchi kraud platformasi yaratilishini va ishga tushirilishini ta‘minlasin.

7. Tashkiliy qo‘mita (B.Raxmatov):

a) 2025-yilda o‘tkaziladigan Forumning ustuvor yo‘nalishlarini belgilasin;

b) ikki oy muddatda Forumni 2025-yilda

o‘tkazishning aniq sanasi va joyi haqida taklif kiritisin;

d) Forumni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejasining sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini, shuningdek, mas‘ul ijrochilar faoliyati muvofiqlashtirilishini ta‘minlasin.

8. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston milliy axborot agentligi Forumni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta‘minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 14-iyul

IV. Farmon ijrosini tashkil etish,
ta‘minlash va nazorat

9. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib Strategik islohotlar agentligi direktori B.B. Raxmatov belgilansin.

10. Farmon ijrosini muhokama qilib borish, mas‘ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi B.M. Mavlonov zimmasiga yuklansin.

SH. MIRZIYOYEV



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

ISTIQLOL AKS ETAR MAMNUN KO‘ZLARDA...



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Yaqinda Prezidentimizning Shayxontohur va Chilonzor tumanlariga tashrifida ishtirok etish sharafiga muyassar bo‘ldim. Ushbu tashrif davomida bildirilgan har bir fikr, ilgari surilgan har bir tashabbus va belgilab berilgan vazifalar menda katta taassurot qoldirdi. Bu jarayonning bevosita guvohi bo‘lganimdan qalbimga ilqlik, ruhimga yangi bir quvvat kirdi, desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Uzoq yillar davomida ziyoli sifatida ta‘lim-tarbiya, adabiyot va ma‘naviyat sohasida ishlab, shuni chuqur angladimki, jamiyatning yuksalishi ko‘chalar ravonligi, binolar balandligi bilangina o‘lchanmaydi. Bular muhim, albatta. Biroq haqiqiy, bardavom taraqqiyot inson tafakkurining yuksalishi, ma‘naviyatining boyishi, qalbidagi ertangi kunga ishonch tuyg‘usining mustahkamlanishi bilan belgilanadi. Prezidentimizning bu galgi tashrifi esa aynan ana shu moddiy va ma‘naviy yuksalishning naqadar uyg‘un, naqadar hamohang olib borilayotganining yana bir yorqin isboti bo‘ldi.

Poytaxtimiz markazidagi ko‘chalardan birida ro‘y bergan o‘zgarishlarga diqqat qilyaylik. Bu yerda gap faqatgina yo‘llarning

xizmat qiladigan ochiq va jonli hududga aylantirilmoqda. Bu davlatning o‘z fuqarolariga yuzlanishi, ularning nafaqat moddiy ehtiyojlari, balki ma‘naviy-estetik talablarini ham hisobga olayotganining yorqin ifodasidir.

Tunu kun hayot qaynaydigan muhitning yaratilishi esa jamiyatimizda yangi bir ijtimoiy qatlam — tashabbuskor, dunyoqarashi keng, o‘z mehnati bilan farovonlik yaratayotgan insonlar safi kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonlarda milliy mehmondo‘stligimiz, betakror oshpazlik san‘atimiz kabi an‘analimiz zamonaviy xizmat ko‘rsatish madaniyati bilan uyg‘unlashayotgani biz dunyoga yangicha qiyofada, o‘zligimizni yo‘qotmagan holda ochiq namoyon bo‘layotganimizni ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbarining Yangi Kamolon mahallasiga tashrifi, odamlar bilan samimiy muloqoti menda katta taassurot qoldirdi. Negaki mahalla bu — millatning joni, uning o‘zagi. Madaniyatimiz, tilimiz, urf-odatlarimiz, mehr-oqibat kabi eng nozik va muqaddas tuyg‘ularimiz aynan mahalla bag‘rida asrab-avaylanadi, avlodlar avlodga o‘tadi. U millatning ijtimoiy immuniteti, begona va zararli unsurlardan asraydigan, o‘zligimizni saqlab qolishga xizmat qiladigan mustahkam bir qo‘rg‘ondir. Shu bois, islohotlarning samarasini, uning “nafasi”ni, eng avvalo, mahalla hayotida, oddiy odamlar turmushida, ularning yuz-ko‘zidagi mamnuniyatda ko‘rish, sezish mumkin.

Yangi Kamolon mahallasining bugungi qiyofasi yangi O‘zbekiston mahallalarining umumlashgan obrazidir. Tekis yo‘llar, ko‘kalamzor hududlar, bolalar maydonchasidagi sho‘x-shodon kulgilar, nuroniylar oromgochida suhbat qunib o‘tirgan otaxonu onaxonlarning duoga ochilgan qo‘llari...

kabi yozilmagan, lekin hayot uchun eng zarur qonun-qoidalarini o‘rganadi. Aynan shu yerda ularning xarakteri shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi.

Shu ma‘noda, mahallalarni obod qilish nafaqat bugungi avlod uchun qulaylik yaratish, balki kelajak avlodlarning tarbiyasi uchun mustahkam zamin hozirlash demakdir. Mahallaning ishsizlikdan xoli hududga aylangani esa bu asarning mazmunini yanada boyitadi. Bu yutuqqa markazdan kelgan buyruq bilan emas, balki odamlarning o‘z tashabbusi, hunarmandchilik, tadbirkorlik orqali erishilgani ayniqsa muhim. Bu

yigitning g‘alabasi — bularning bari yoshlar qalbiga orzu-umid urug‘ini ekadi. Bunday mahallalarning mavjudligi boshqa hududlar uchun ham kuchli turtki, ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Odamlar bir-biridan o‘rnak oladi, yaxshilikda musobaqalashadi, mahallalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti paydo bo‘ladi. “Falonchi mahalla uddalagan ishni biz ham qila olamiz” degan sog‘lom, sof niyat tug‘iladi. Bu esa, o‘z navbatida, butun jamiyatimizdagi yuksalish jarayonlariga misli ko‘rilmagan kuch bag‘ishlaydi.

Shu o‘rinda bir jihatga alohida to‘xtalib



So‘nggi yillarda esa Prezidentimiz rahbarligida bu mustaqillik yangicha mazmun, yangicha sur‘at kasb etdi. Davlatchilikni mustahkamlash bosqichidan biz endi milliy yuksalish bosqichiga qadam qo‘ydik. Bugungi davrni men uyg‘onishning eng faol bosqichi deb bilaman. Endi biz nafaqat o‘tmishimiz bilan faxrlanamiz, balki buyuk kelajagimizni ham o‘z qo‘llarimiz bilan, dadil qadamlar bilan bunyod etmoqdamiz.

davlatimiz rahbari olib borayotgan siyosatning eng asosiy tamoyili — odamlarni boqimandlik kafiyyatidan chiqarib, ularga kuch-g‘ayrat berish, imkoniyatlar eshigini ochish siyosatining amaldagi yorqin natijasidir. Shuningdek, inson kapitaliga, har bir fuqaroning salohiyatiga ko‘pgan yuksak ishonch deb baholash joiz.

Shu o‘rinda qalbindan bir fikr o‘tadi: bunday obod va fayzli mahallalar shunchaki chiroyli manzara emas, balki iqtidorlar uchun o‘ziga xos bir “inkubator” vazifasini ham o‘taydi. Tarixdan ma‘lum, buyuk allomalar, mohir sarkardalar va jahonga dong‘i ketgan hunarmandlar aynan tinch, ahil va ma‘rifatli muhitda kamolga yetgan. Bugungi obod mahalla ertangi chempionlar, olimlar, ixtirochilar va san‘atkorlar ulg‘ayadigan maskandir. Bolalar maydonchasida o‘ynab yurgan o‘g‘il-qizlar orasidan kelajakda yurtimiz bayrog‘ini jahon arenalarida baland ko‘taradigan sportchilar yetishib chiqishiga aslo shubha yo‘q.

Bu tasodif emas, qonuniyat. Chunki farzandlarimizning ko‘zo‘ngida yaratuvcilik, bunyodkorlik, mehnat bilan yuksak natijalarga erishish mumkinligi haqidagi hayotiy namuna turibdi. Qo‘shni mahalladagi usta hunarmandning yutug‘i, mahalladosh tadbirkorning kengayayotgan ishi, sportchi

o‘tmashlikning iloji yo‘q. Bu — mahalla guzaridagi kichik kutubxona. Bir qarashda arzimadek tuyulgan bu detal, aslida, bugungi islohotlarning naqadar chuqur mazmunga, teran falsafaga ega ekanini ko‘rsatuvchi yorqin timsoldir. Qaylarning davlatining poydevori — ma‘rifat. Maqtardaki kitobga, ilgama e‘tibor kuchli bo‘lsa, o‘sha yurtda yuksalish, taraqqiyot bo‘ladi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur “Kuch — adolatda” deganida, adolatning o‘zi ham ilm va ma‘rifatdan kuch olishini nazarda tutgan. Bugun mahallalar markazida kutubxonalar paydo bo‘layotgani, ko‘payayotgani — kelajakka qo‘yilgan eng katta, eng bebaho sarmoya.

Kattami-kichikmi kutubxona shunchaki kitoblar terilgan javonlar to‘plami emas. Bu — olamga ochilgan nurafshon darcha, bobolarimizning hikmat xazinasi bilan nabiralarning shijoatli orzularini tutashiradigan ko‘prik. Birgina kitobning qudratini, birgina harfning sehnini anglagan millat yengilmas bo‘ladi.

Bugungi kunda ma‘rifatni, ilmni nufuzli dargohlarda olib chiqib, har bir mahallaga, har bir xonadonga olib kirish to‘liq ma‘nodagi demokratik, ma‘rifiy inqilobdir. Bu millatning intellektual suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi eng muhim qadam. Davlatimiz

rahbarining tashabbusi butun mamlakat bo‘ylab yoyish haqidagi ko‘rsatmasi esa biz Uchinchi Renessans poydevorini qanday mustahkam asoslar ustiga qurayotganimizni yaqqol namoyon etadi.

Prezidentimizning tashrif davomida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga ham e‘tibor qaratgani bejiz emas. “Inson” so‘zining o‘zida butun bir ma‘no mujassam. Bu so‘z bugungi siyosatimizning bosh g‘oyasi, alfa va omegasidir. “Inson qadri uchun” degan ulug‘ tamoyil endilikda quruq shior emas, balki har bir sohaga, har bir jabhaga singib borayotgan hayotiy mezoniga aylandi.

Bu markazlarning tashkil etilishi jamiyatimizda mehr-oqibat, saxovat va o‘zaro yordam kabi azaliy qadriyatlarimizning yangi, zamonaviy va tizimli shaklda namoyon bo‘lishidir. Shu o‘rinda biz oddiy rahmdillik yoki achinish hissigacha asoslangan yordam haqida emas, balki insonning qadr-qimmatini tiklash, uning jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish haqida gapiryapmiz.

Endi davlatning ko‘magi shunchaki bir martalik moddiy yordam bilan cheklanib qolmayapti. Insonning dardi tinglayapti, uning muammosi o‘rganilyapti va unga shunchaki baliq emas, balki qarmoq berilib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashilyapti. Bu ijtimoiy adolatning eng oliy ko‘rinishidir. Ayni tizim orqali ijtimoiy hamjihatlik mustahkamlanadi, jamiyatda hech kim o‘zini yolg‘iz, e‘tibordan chetda his qilmaydi. Bu — xalq va davlat birligining, ularning bir tanu bir jon ekanining yana bir yorqin dalili.

Mustaqilligimizning 34 yillik shodiyonasiga yaqinlashar ekanmiz, o‘ylab qolaman: mustaqillik bizga nima berdi? U bizga, avvalo, o‘zligimizni anglash, o‘z taqdirimizning haqiqiy egasi bo‘lish baxтини berdi. U bizga o‘z qadriyatlarimizni tiklash, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lish imkoniyatini taqdim etdi. Dastlabki yillarning qiyinchiliklari va sinovlari bizni tobladi, chinigirtirdi.

So‘nggi yillarda esa Prezidentimiz rahbarligida bu mustaqillik yangicha

o‘z qo‘llarimiz bilan, dadil qadamlar bilan bunyod etmoqdamiz.

Davlatimiz rahbarining poytaxt ko‘chalarda oddiy odamlar bilan, nuroniy otaxonu onaxonlar bilan yuzma-yuz, samimiy muloqotlarini kuzatar ekanman, xalq va rahbar o‘rtasidagi ishonch, hurmat va mehr rishtalari naqadar mustahkam ekaniga yana bir bor amin bo‘laman. Bu muloqotlarda sun‘iylik yo‘q. Faqat samimiyat, o‘zaro ishonch va yagona maqsad — shu yurti obod qilish, shu xalqni rozi qilish istagi bor.

Prezidentimizning har bir chiqishida, har bir so‘zida yoshlarga, ularning ta‘lim-tarbiyasiga, kelajagiga bo‘lgan yuksak e‘tibori va g‘amxo‘rligi yaqqol sezilib turadi. Shu bois, u kishini nafaqat davlat rahbari, balki millatning ustosi, yoshlarning g‘amxo‘r murabbiysi sifatida ham ko‘raman.

Toshkent shahriga ulkan investitsiyalar kiritilayotgani haqidagi xabar zamirida ham biz, avvalo, ming-minglab yoshlarimiz uchun yaratilajak yangi ish o‘rinlarini, zamonaviy o‘quv maskanlarini, ularning ilm-fan cho‘qqilarini egallashi uchun yaratilajak sharoitlarni ko‘ramiz.

Xulosa o‘rinda aytmoqchimanki, bugungi O‘zbekiston ulkan bunyodkorlik maydoniga, ulkan ma‘rifat maskaniga aylangan. Shahar qiyofasining yangilanishi, mahallalar ruhiyatining yuksalishi va ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishi — bularning barchasi bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga kuch bag‘ishlovchi yaxlit jarayondir. Bular yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini tashkil etuvchi uch ustundir. Islohotlarning “nafasi” har bir mahallada, har bir xonadonda sezilib turibdi. Bu nafas odamlarning qalbiga umid, ko‘ziga nur, shijoatiga shijoat qo‘shmoqda.

Biz, katta avlod vakillari, ziyolilar bugungi kunlarga yetkazganiga shukronalar aytib, mamlakatimizda kechayotgan buyuk o‘zgarishlarning guvohi bo‘layotganimizdan baxtiyormiz. Bu yo‘l oson yo‘l emas. Lekin maqsad aniq, yo‘nalish to‘g‘ri, sarbon mard va donishmand ekan, bu yo‘lda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish mumkin.

Ishonchim komilki, Prezidentimiz



obod qilinganida yoki chiroyli binolar qurilganida emas. Gap ijtimoiy makon, ya‘ni jamoatchilik uchun mo‘ljallangan hududlar falsafasining tubdan o‘zgarganidadir.

Shahar — o‘z aholisining aksi, ruhiyati ko‘zgusi. Tartibli, ozoda, fayzli va inson uchun qulay shahar birdamlik, go‘zallikni va inson qadriini yuksak qo‘yadigan jamiyat belgisidir. Avvallari bunday markaziy hududlar ko‘proq ma‘muriy ahamiyat kasb etib, oddiy fuqaro uchun bir o‘z begonadek tuyulardi. Bugun esa bu maskanlar insonlar uchun, ularning oilasi, farzandlari bilan mazmunli dam olishi, o‘zaro dildan suhbatlashishi, hayotning go‘zal lahzalaridan bahramand bo‘lishi uchun

Bu manzaraning o‘zi buyuk bir asar. Bu asarning nomi tinchlik, farovonlik va bunyodkorlikdir. Mahalla hayotiga singib ketgan fayz, ahillik, hamjihatlik muhiti har qanday moddiy boylikdan ustun. Shunday muhitni sano‘iy yaratish qiyin, uni buyruq bilan yaratib bo‘lmaydi. Bunga odamlarning qalbidagi ertangi kunga ishonch uyg‘otish, adolat va haqiqat qaror topishiga zamin yaratish orqaligina erishish mumkin.

Darhaqiqat, mahalla hayot maktabidir. Farzandlarimiz rasmiy ta‘lim dargohiga bormasdan ancha avval aynan mahalla bag‘rida kattaga hurmat, kichikka izzat, qo‘ni-qo‘shinchilik odobi, halollik va mehnatsevarlik



mazmun, yangicha sur‘at kasb etdi. Davlatchilikni mustahkamlash bosqichidan biz endi milliy yuksalish bosqichiga qadam qo‘ydik. Bugungi davrni men uyg‘onishning eng faol bosqichi deb bilaman. Endi biz nafaqat o‘tmishimiz bilan faxrlanamiz, balki buyuk kelajagimizni ham

boshchiligidagi biz yanada ulug‘vor marralarni zabt etamiz, Uchinchi Renessans poydevorini muvaffaqiyatli qurib bitiramiz va kelajak avlodlarga ozod, obod va farovon Vatanni meros qoldiramiz. Mustaqilligimiz abadiy, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo‘lsin!



Oltin avlod qanoti

YANGI O‘ZBEKISTON YO‘LI – ADOLAT, ISHONCH VA IMKONIYAT



Muxtorxon TOSHXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Milliy paralimpiya
qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Ushbu qaror tom ma'noda sportchilarga katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Jumladan, hujjatda olimpiya va paralimpiya sport turlarini ularning amaldagi natijalariga ko'ra toifalarga ajratib, qisqa va uzoq muddatli strategiyalarni belgilash ko'rsatilgan. Bunda ushbu sport turlari differensial yondashuv asosida rivojlantiriladi. Shuning o'ziyoq yangi O'zbekistonda insonlarga o'z imkoniyatini to'g'ri baholashga sharoit yaratish orqali adolatlari tizim ishlayotganini ko'rsatadi. Chunki differensial yondashuv sport

Bu oldimizga saralash va seleksiya tadbirlari uchun "yo'l xaritasi" tuzish zarurati qo'yilmoqda. Ushbu ishlarni samarali tashkil etish orqali litsenziya va medallarni qo'lga kiritishda juda katta natijalarga erishish kutilyapti.

Ko'zlangan marraga erishish esa qator jihatlarga e'tibor qaratushni taqozo etadi. Xususan, hududlarda iqtidorli va istiqbolli parasporthchilarni saralash va seleksiya ishlari yangi bosqichga olib chiqish zarur.

Shu o'rinda "Maftuningman" badiiy filmi esga tushadi. Kinoda Nabi Rahimov obrazini yaratgan qahramon olis qishloqlarga borib, oddiy odamlar orasidan iste'dodlarni topib keladi. Endi biz ham mana shunday ishlashimiz, xalqimiz, yoshlarimiz orasidan iqtidor egalarini izlab topishimiz kerak. Bu borada o'ziga xos chora-tadbirlar belgilangan. Masalan, paralimpiya harakatini rivojlantirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari rahbarlik qiladigan hududiy kengashlar tashkil etiladi.

Prezidentimizning 2024-yil 28-maydagi qarori bilan O'zbekiston davlat sport akademiyasi tashkil etilgan edi. Akademiyani ilk bor 2025-2026-o'quv yili uchun talabalarni qabul qiladi. Ushbu o'quv yilida paralimpiya yo'nalishi bo'yicha 20 ta joy ajratilgan. Ulariga nomzodlar aynan hududlardagi Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi o'quvchilari orasidan saralab olinadi.



Lekin oldimizga qo'yilgan katta marrani zabt etishimiz uchun buni yanada takomillashtirishga ehtiyoj bor. Chunki taraqqiyot bir joyda to'xtab turmaydi. Zamonga mos qulayliklar yaratib borish esa sportchilarning erkin, o'ziga ishonch bilan harakatlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Parasporthchilar imkoniyatini to'g'ri baholash uchun ularning kasalligiga yoki nuqsoniga qarab tasniflash (klassifikatsiya) ishlari mahalliy darajada sifatli bo'lishi kerak. Buni yuqori sifatga olib chiqish uchun xalqaro

parasportga jiddiy qarala boshlagan ilk kunlardayoq xalqaro aloqalarga alohida e'tibor berishni boshlaganmiz.

Joriy yilning o'tgan yarim yili misolida aytib, Xalqaro ko'zi o'zlar sport federatsiyasi (IBSA), Jahon paraatletika, Polsha, Eron, Koreya, Belarus paralimpiya qo'mitalari, Sankt-Peterburg shahrida A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi P.F.Lesgaft nomidagi Milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti delegatsiyalari bilan uchrashib, hamkorlik o'rnatdik. Bundan tashqari, Xalqaro paralimpiya va Osiyo paralimpiya qo'mitalari bilan kompleks musobaqlar hamda turli masalalar yuzasidan doimiy ish rejimida hamkorlik qilinmoqda.

Shu kabi tizimli ishlar 2028-yil Los-Anjeles shahrida bo'lib o'tadigan XVIII Paralimpiya o'yinlarida vatanimiz sportchilari yanada yuqori marralarni zabt etishga qaratilgan.

Qaror bilan sportchilarni Los-Anjeles Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash dasturi ham qabul qilindi. Unda "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqasini tashkil etish va o'tkazish nazarda tutilgan. Biz doim Sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi bilan hamkorlikda ishlab, katta yutuqlarga erishib kelaymiz. Ushbu qaror bilan belgilangan vazifalarni birgalikda yuqori saviyada bajarishga kirishdik.

Shu o'rinda nihoyatda muhim jihatga e'tibor qaratushni istardim. "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqasi shunchaki sport bellashuvi emas. U orzularga erishishda mehnatga yarasha munosib baho, yosh sportchilarning kelajakka yo'llanmasidir. Chunki musobaqaning respublika bosqichida g'olib bo'lganlar bevosita milliy terma jamoalarimiz zaxirasiga olinadi.



Musobaqada birinchi va ikkinchi o'rinni qo'lga kiritganlar Respublika paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga, uchinchi o'rin egalari esa uning hududiy bo'limlariga qabul qilinadi. Ya'ni musobaqa g'oliblariga bo'lajak qahramonlar deb qaraladi. Bu ham bo'lsa, maqolamiz avvalida aytganimiz, yangi O'zbekistonda insonlar qalbida uyg'onayotgan mustahkam ishonchning yana bir ifodasidir.

Markazda o'qish jarayoni ikki bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda 8-11-sinfilar uchun olimpiya va paralimpiya maktabi, ikkinchi bosqichda 1-2-kurslar uchun olimpiya va paralimpiya kolleji faoliyat ko'rsatadi.

Qolaversa, paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida terma jamoalar sportchilarini ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tayyorlashga ham alohida ahamiyat berilyapti. Buning uchun zarur bo'lsa, chet ellik sport mutaxassislari jalb etib boriladi.

Shu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tmoqchiman. Parasporthchini tayyorlash, uni natijador cho'qqiga olib chiqish juda katta mehnat, sabr-toqatni talab etadi. Avvalo, sportchini ishonitirish, uning olg'a intilishi uchun so'nmas shijoatni uyg'otish kerak. Buning uchun murabbiyda katta mahorat va go'zal insoniy fazilatlar mujassam bo'lishi shart. Shu nuqtayi nazardan, murabbiylarni yuqori mahoratli sportchilarni tayyorlashdagi xizmatlari uchun rag'batlantirish tizimi takomillashtirilayotgani yanada quvonarli. Ya'ni paralimpiya sport turlariga tayyorlash

Qaror bilan sportchilarni Los-Anjeles Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash dasturi ham qabul qilindi. Unda "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqasini tashkil etish va o'tkazish nazarda tutilgan. Biz doim Sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi bilan hamkorlikda ishlab, katta yutuqlarga erishib kelaymiz. Ushbu qaror bilan belgilangan vazifalarni birgalikda yuqori saviyada bajarishga kirishdik.

turiga, uning holati va istiqboliga qarab alohida ishlash degani. Ya'ni har bir sport turi o'tgan yillarda ko'rsatilgan natijalarga qarab ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan toifalarga bo'linadi. Bunday toifalash sport turlariga individual yondashib, uni yanada rivojlantirish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo'l keladi.

Masalan, qarorda parayengil atletika, paradzudo, parataekvondo (WT), parasuzish, parapauerlifting va parao'q otish sportning ustuvor turlari sifatida keltirilgan. Ushbu sport turlari bilan shug'ullanayotgan sportchilarimizda bugun katta natijalarni olib kelish imkoni ko'proq. Shu bois, ular bilan qisqa vaqtda katta natijaga erishish ustida ishlaymiz. Qarorda ham bu alohida band sifatida ko'rsatiladi. Ustuvor sport turlarida litsenziyalarni ko'paytirish hamda medallar uchun kurashish vazifasi qo'yildi.

Xuddi shuningdek, parakanoeda eshakk eshish, paraakademik eshakk eshish, paravelosport, aravachada qilichbozlik, parakamondan otish va parastol tennis sport turlari istiqbolli hisoblanadi. Bu toifadagi sport turlari yaqin kelajakda yuqori natijalar keltirish imkoniga ega. Bu bizga ushbu sport turlarini rivojlantirishda yaqin kelajakda asoslangan reja tuzish talabini qo'yadi. Ya'ni ular bo'yicha litsenziyalarni qo'lga kiritish ustida ishlaymiz.

Rivojlanayotgan sport turlari — bochcha, paratriatlon, paravoleybol, parabadminton, ko'zi o'zlar uchun futbol (5x5) va golbol. Ya'ni bu sport turlari bo'yicha ham yuqori samaradorlikka erishish imkoni bor. Faqat ularni rivojlantirishda uzoq istiqbolga asoslangan rejalarda dasturi ishlab chiqilishi kerak. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi, ushbu sport turlarini toifaga ajratib rivojlantirish nima beradi?

Avvalo, mablag'ni yo'naltirish, murabbiylar sinfini shakllantirish kabi resurslarni samarali taqsimlash osonlashadi. Bu har bir sport turining barqaror natijaga o'tishiga olib keladi. Muhimi, strategik reja tuzish hamda sport sohasida ilmiy asoslangan tizimli islohotlar qilish imkoniyati kengayadi.

Alohida toifalarga ajratish sportning boshqa turlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali barchaga o'z iste'dodini namoyon etishga imkoniyat beriladi. Kerak bo'lsa, maktab o'quvchilari orasidan iste'dodlar saralanib, kelgusi yuqori natijalar uchun tayyorlab boriladi. Yosh sportchilar zaxirasi yanada kengaytiriladi.

Alohida toifalarga ajratish sportning boshqa turlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali barchaga o'z iste'dodini namoyon etishga imkoniyat beriladi. Kerak bo'lsa, maktab o'quvchilari orasidan iste'dodlar saralanib, kelgusi yuqori natijalar uchun tayyorlab boriladi.



Keyingi bosqichda toshga ishlav berib, javohir yaratadigan zargarday yoshlarning iste'dodini ko'rsatib berishimiz shart. Buning uchun saralangan sportchilarni milliy terma jamoalarga kiritish, mahalliy va xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'inlarida ularning doimiy hamda uzluksiz ishtirokini ta'minlash kerak bo'ladi.

Sportchilar yaxshi biladi, mazkur jarayon ishlarni kompleks tashkil etish zarurati qo'yadi. Ya'ni o'quv-mashg'ulot yig'inlarida sportchilarni tayyorlash jarayonida ilg'or va natijador metodikalardan foydalanish zarur. Shu jarayonda har bir sportchiga alohida yondashuv kerak bo'ladi. Psixologik xizmat, tibbiy-biologik, farmakologik va vitaminizatsiya ishlari amalga oshirish, mashg'ulotdan keyingi qayta tiklash jarayonini tizimli tashkil etish kerak. Qolaversa, nufuzli xalqaro musobaqalarda sportchilarimizning mahoratini doimiy oshirib borish lozim.

Psixologik, ruhiy quvvat haqida ham qisqacha to'xtalsam. Doim paralimpiyachilar bilan suhbatlashganimda, ulardagi so'nmas ishonchdan quvonaman. Chunki sportchilarning yuz-ko'zida sport hayotimni yaxshi tomonga o'zgartirdi, endi men yanada katta g'alabalarga erishaman, degan qat'iyatni ko'raman. Demak, oldimizda ularning shijoatiga mos shart-sharoit yaratib berish vazifasi ham turibdi. Xususan, parasporthchilarga o'quv-mashg'ulot davomida sport inshootlaridan yetarlicha foydalana olishi uchun qulay shart-sharoit yaratishimiz kerak. To'g'ri, hozir ham sport inshootlarimiz bugungi kun talablariga to'la javob beradi.



toifadagi yoki sertifikatga ega klassifikator-mutaxassislar tayyorlash, malakasini doimo oshirib borishga jiddiy e'tibor beriladi. Bu ham parasporthchilarga teng imkoniyat yaratish orqali o'zini ko'rsata olishida qo'l keladi. Mazkur qaror bilan sportning yangi davri boshlanib, sportchilar uchun teng imkoniyatlar eshigi ochilyapti. Yuqori natijaga erishgan sportchi, murabbiy va boshqa mutaxassislar rag'batlantirib borilishi ham quvonarli yongillikdir.

Qarordagi birgina mana shu jihat misolida yangi O'zbekiston yaqin va uzoq istiqbolga qaratilgan aniq rejalari asosida buniyod etilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ayni paytda bu rejalari adolatlari ekani, barchaga teng imkoniyatlar yaratayotganini ham e'tirof etishimiz zarur.

Barcha zamonlarda xalqaro tajribani o'rganish taraqqiyotning muhim bosqichi hisoblangan. Shu bois, ajdollarimiz yarim yil piyoda yurib bo'lsa-da, o'zga yurtlarga borib ilm o'rgangan. O'z ustida ishlab, dunyo tamaddunida muhim shaxslarga aylangan. Xalqaro tajribani o'rganish bugun osonlashdi. Texnik taraqqiyot sabab masofalar qisqardi. Muhimi, O'zbekiston dunyoga ochildi. Dunyo ham bizga quchog'ini ochdi. Shu bois, bunday tajriba almashish biz uchun yanada osonlashdi. Mazkur qarorda ham xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va ular faoliyatida O'zbekiston sport jamoasi vakillari ishtirokini kengaytirish vazifasi qo'yilgan. Aytish kerak, yangi O'zbekistonda

tadbirlardan bo'sh vaqtlarda bemalol pasaport musobaqlarini o'tkazishimiz mumkin bo'ladi. Buning qanchalik muhim ekanini teran anglash uchun Olimpiya shaharchasining imkoniyatlarini tushunishimiz kerak. Ayni paytda qurilish davom etayotgan ushbu shaharcha xalqaro standartlarga to'la javob beradigan zamonaviy sport kompleksi bo'ladi. U har qanday musobaqani yuqori saviyada o'tkazishga, muhimi, sportchilarimiz tayyorgarlik jarayonida katta maydonga moslashib borishida beqiyos o'rin tutadi. Bunday ko'nikmalarning o'z vaqtida shakllanishi, ayniqsa, parasporthchilar uchun juda muhim.

Olimpiya shaharchasining ma'rifiy ahamiyati ham borki, bu xususda alohida to'xtalmasak bo'lmaydi. Katta maydon, 100 gektar joyga qurilayotgan ushbu shaharcha "Yangi O'zbekiston" bog'i ro'parasida, Mustaqillik monumenti shundoq ko'rinish turadigan joyda qad rostlayapti. Bu bog' tom ma'noda Uchinchi Renessansi yaratish ahdi, qat'iy qarori bilan yashayotgan xalqimizning ma'naviy birdamligi, orzu-umidlari ramzidir. Mustaqillik monumenti shonli tariximizni, bugunimiz va ertangi kunimizni o'zida mujassam etgan. Ana shunday muhim, ta'bir joiz bo'lsa, kelajak yadrosi joylashgan hududga tutash holda katta sport kompleksi qurilishi biz tanlagan yo'lga nozik ishoradir. Undan sal narida ma'rifat maskani shaharcha shaklida bunyod etilyapti.

Bundan anglash mumkinki, davlatimiz rahbari yangi O'zbekiston g'oyasini hayotga tatbiq etishdan oldin puxta reja, aniq tasavvurga ega bo'lgan. Bu uzoqni ko'ra oladigan yetakchilargagina xos fazilatdir.

Yangi Toshkentda birinchi bog' barpo etildi. U kelajak g'oyasi shaklida hayotimizga kirib keldi. So'ng ma'rifat maskanlarini bunyod etishga start berildi.

"Bugun "Yangi O'zbekiston" universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining kampuslari, Milliy kutubxona, Milliy teatr, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi, ijod maktabi hamda Milliy maqom markaziga tamal toshi qo'yamiz. Yangi shahar qurilishi ilm-fan,

ma'naviyat maskanlaridan boshlanayotgani bejiz emas. Bular ma'rifatli jamiyat barpo etish g'oyamizning asosi va namunasi bo'ladi", degan edi davlatimiz rahbari.

Nazarimda, "Yangi O'zbekiston" bog'i, ma'rifat maskanlari majmuasi, Olimpiya shaharchasi bir butunlikda yangi O'zbekistonning qiyofasini tashkil etadi. Chunki sport bilan shug'ullanadigan shaxs nafaqat jismonan, balki ma'nan ham chinigadi. Buni fan isbotlagan. Donishmandlar bot-bot takror etgan. Xususan, "Mutanosiblikni saqlash, go'zal va sog'lom bo'lish uchun faqat fan va san'at sohasidagi bilimlarning o'zi kifoya qilmaydi, buning uchun umr bo'yi badantariya va gimnastika bilan shug'ullanish talab etiladi", deydi Aflotun.

Shu ma'noda, biz ko'zlangan marrani zabt etish yo'lida davlatimiz rahbarining "2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga" O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qarori tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu qaror va unda ko'rsatib o'tilgan vazifalar ijtimoiy davlat maqomini olgan mamlakatimizda xalqni rozi qilish, barchaga teng va adolatlari sharoit yaratishdagi muhim tadam. Ayni paytda yangi O'zbekistonni bunyod etishda yangi davr boshlanganini ko'rsatib beradigan betakror hujjatdir.

4

2025-yil 16-iyul, 144-son

“Yashil” taraqqiyot

YANGI O‘ZBEKISTON

TO‘POLANG
GIDROUZELI

“ZARCHOB-3” GESI

ELEKTR ISHLAB CHIQUARISHGA TAYYOR

Surxondaryo viloyatida gidroenergetik quvvat 8 yilda 9 barobarga oshdi

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda energetika tarmog‘ini jadal rivojlantirish, barqaror va uzluksiz elektr energiyasi ishlab chiqarish, bu borada qayta tiklanuvchi energiya manbalariga alohida e‘tibor qaratish, xususan, gidroenergetika sohasida yangi GESlarni ishga tushirish, mavjudlarini izchil modernizatsiyalash borasida “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu yilning 11-12-iyul kunlari mahalliy va xorijiy OAV vakillari uchun “To‘palang” GESi hamda “Zarchob-1”, “Zarchob-2”, “Zarchob-3” kichik GESlariga press-tur tashkil etildi.

Surxondaryo viloyatidagi asosiy gidroenergetik salohiyat To‘palang daryosi hisobiga to‘g‘ri keladi. Daryo suvidan unumli foydalanish maqsadida 1983-yilda “To‘palang” suv ombori bunyod etilgan. U Sariosiyo tog‘laridan oqib tushgan suvni bir joyga to‘plash natijasida vujudga kelgan. O‘ziga xos tabiati va baland tog‘lar qurshovidagi katta gidroinshoot bu yerda yashovchi aholi uchun eng zarur manbadir. Denov, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on tumanlaridagi ekinzorlar mazkur suv ombori orqali sug‘orilsa, uning quyi qismidagi GESlar quvvati viloyatning janubiy hududlarini elektr energiyasi bilan ta‘minlaydi.

— Loyiha bo‘yicha suv omboriga 500 million kub metr suv yig‘ish quvvatiga ega, hozir 430 million kub metr suv to‘plandi, — deydi “To‘palang” GESi direktori o‘rinbosari, suv ombori boshlig‘i Saidvaqqos Hamroyev.

— Suv omborining yuqori qismida ikkita katta va o‘n to‘qqizta mini GES qurilishi rejalashtirilgan. Kelajakda aholining madaniy hordiq chiqarishi, hududning turizm salohiyatini oshirish borasida yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Viloyatda 2006-yilda ilk gidrotexnik inshoot — 30 megavatt quvvatga ega “To‘palang” GESi ishga tushirilgandi. Ushbu GES 2021-yilga qadar vohada yagona edi. 2017-yildan e‘tiboran yurtimiz bo‘ylab mavjud suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanigan holda yangi GESlar qurish va eskilarini modernizatsiyalash borasida keng ko‘lamli amaliy ishlar boshlandi. Xususan, Surxondaryo viloyatida olib borilgan qidiruv-loyiha ishlari doirasida qator yangi GESlar qurilishi amalga oshirildi.

— To‘palang suv omborida GES qurish loyihasi 1998-yilda tasdiqlanib, qurilish boshlangan, — deydi “To‘palang” GESlar kaskadi direktori Asrorjon Ulug‘ov. — Sakkiz yil davom etgan qurilish natijasida 2006-yilda 30 megavattlik agregat ishga tushirildi. 2019-yilda Prezidentimiz “To‘palang” GESiga kelib, imkoniyatlarimizni ko‘rib, shu bino ichida yana ikki agregat qurilishiga ruxsat berdi. 2023-yil 13-mart kuni “To‘palang” GESda o‘tkazilgan modernizatsiya ishlari natijasida uning 30 megavattlik quvvati 145 megavattga oshirilib, yangilangan 175 megavatt quvvatdagi yirik GES ishga tushirildi. Bugungi kunda GESlar tarmog‘ida 220 xodim ishlaydi, elektr ishlab chiqarishga qo‘shayotgan ulushimiz, salohiyatimiz borasida viloyatdagi yirik tashkilotga aylandik. Ishchilar malakasi, qurilishdagi mahalliy

“**AGAR 2017-YILGACHA SURXONDARYO VILOYATIDA GIDROENERGETIK QUVVATLAR 30 MEGAVATT BO‘LGAN BO‘LSA, SO‘NGGI 8 YILDA 9 BAROBAR OSHIB, 2025-YILGA KELIB 273 MEGAVATTGA YETKAZILDI. HOZIRGI KUNDA SURXONDARYO VILOYATIDA TURLI HAJMDAGI 16 TA GES (XUSUSAN, KINETIK TURBINALI 8 TA GES) ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQUARMOQDA.**

mutaxassislar faolligini birgina “Zarchob-3” GESi qurilishi va montaj ishlarining to‘liq o‘z xodimlarimiz tomonidan amalga oshirilganida ham ko‘rish mumkin.

“To‘palang” GESi yiliga o‘rtacha 467 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. “To‘palang” GESi loyihasi doirasida boshqaruv to‘liq avtomatlashtirilib, sohada inson omilisiz ishlaydigan “aqli” tizim yaratilgan.



2021-yil 3-aprel kuni umumiy quvvati 37,4 megavatt bo‘lgan “Zarchob-1”, shu yili 20-noyabr kuni umumiy quvvati 38,2 megavattlik “Zarchob-2”, 2024-yil 30-avgust kuni esa umumiy quvvati 3 megavatt bo‘lgan “Zarchob-1a” kichik GESi ishga tushirildi. Ushbu GES o‘rtacha 13,3 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, “Zarchob-1a” kichik GESi tomonidan ishlab chiqariladigan

elektr energiya 5500 ta xonadonni ta‘minlaydi. 2025-yil 24-yanvar kuni umumiy quvvati 3 megavatt bo‘lgan “Zarchob-2a” kichik GESi ham ishga tushirildi.

“Zarchob-3” GESi qurilishiga Prezidentimizning 2023-yil 17-noyabrda Surxondaryo viloyatiga tashrifi doirasida start berilgan edi. U qisqa davrda — qariyb 1,5 yil davomida qurib bitkazildi. Mazkur GES To‘palang

daryosi bo‘yida qad rostlagan yirik loyihaning mantiqiy davomi bo‘lib, nafaqat Sariosiyo tumani, balki butun Surxondaryo viloyati aholisi uchun qo‘shimcha quvvat manbaini yetkazib beradi. Hozirgi kunda “Zarchob-3” kichik GESi sinov-test rejimida elektr energiyasi ishlab chiqarmoqda.

Ushbu loyiha mamlakatimiz yangi tarixida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, bir daryo o‘zanidan “zanjir ketma-ketligi” asosida qayta-qayta elektr energiyasi olishni ta‘minlaydi. Endilikda To‘palang daryosidan kaskad ko‘rinishidagi GESlar orqali 5-6 marotaba elektr energiyasi olinmoqda.

Loyihaning foydalanishga topshirilishi natijasida yiliga o‘rtacha 70 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa 23 ming 200 ta xonadonni elektr energiyasi bilan ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, yillik 19 million kub metr gaz iqtisod qilinishiga erishiladi.

Agar 2017-yilgacha Surxondaryo viloyatida gidroenergetik quvvatlar 30 megavatt bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi 8 yilda 9 barobar oshib, 2025-yilga kelib 273 megavattga yetkazildi. Hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida turli hajmdagi 16 ta GES (xususan, kinetik turbinali 8 ta GES) elektr energiyasi ishlab chiqarmoqda.

Bugungi kunda viloyatdagi GESlar tomonidan yiliga qariyb 700 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilayapti. Bu orqali 200 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi. 290 ming xonadon elektr energiyasi bilan ta‘minlanadi.

2033-yilga qadar viloyatda 22 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Xususan, 2025-2033-yillar mobaynida “Kishtut” GES-1, “Kishtut” GES-2, “Kishtut” GES-3, “O‘ng qirg‘oq” GESlar kaskadi, “Kishtut” GES-4, “Kishtut” GES-5, “Kishtut” GES-6 hamda 14 ta GESdan iborat “Yuqori To‘palang” GESlar kaskadi quriladi. Hozir shu kabi istiqbolli loyihalar uchun Mizot — Kishtut avtoyo‘li qurilishi doirasida qariyb 32 kilometrga teng yo‘l barpo etilmoqda.

Yuqoridagi barcha loyihalar ishga tushirilgach, 2033-yilda Surxondaryo viloyatining gidroenergetik quvvati hajmi 668 megavattga yetkazilib, yiliga 2,24 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Gidroenergetika sohasining izchil taraqqiyoti mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bilan birga yangi GESlar qurilayotgan, modernizatsiya qilinayotgan gidrotexnik inshootlar joylashgan hududlar aholisining turmush faronovligi oshishiga, ishlab chiqarish subyektlarining elektr quvvatlari bilan ta‘minlanishiga, tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xalqimiz faronovligiga mustahkam zamin yaratadi.

Rashid XO‘JAMOV,
‘Yangi O‘zbekiston’ muxbiri

Yangicha yondashuvlar

“AGRO IN VITRO”dagi HAYOT

ILM VA TABIAT UYG‘UNLIGIDA BARPO ETILAYOTGAN BOG‘LAR

Boshlanishi 1-betda

Endi yerga urug‘ qadab, bir oz suv berib, osmondan yomg‘ir kutgan holda hosil olish orzudek eshitiladi. Bu go‘yoki igna bilan quduq qazish kabi mashqaqatli ishga aylandi. Bunday vaziyatda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning yagona yo‘li sohani ilmiy yondashuv asosida isloh qilishdir. Zamonaviy texnologiyalar, fan va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish orqaligina barqarorlikka erishish mumkin. Jumladan, qurg‘ochilikka va sovuqqa, kasalliklarga chidamli, ko‘p hosil beradigan navlarni yetishtirish zamon talabi.

YANGI BOSQICHDAGI MILLIY AGRAR YONDASHUV

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” qabul qilingan. Ushbu hujjatda 9 ta ustuvor yo‘nalish va islohotlarning qisqa hamda uzoq muddatli yo‘nalishlari belgilangan. Ayni paytda mazkur strategiya asosida agrar sohada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, chorvachilik va issiqxona xo‘jaliklarini, paxta-to‘qimachilik klasterlarini qo‘llab-quvvatlash, uzumchilik va vinochilik sohalari barqaror rivojlantirish, xomashyo bazasini kengaytirish, eksport hajmini oshirish, agrar sektorni zamonaviy, resurs tejankor texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlash borasida yangi mexanizmlar joriy etilayapti. Bu kabi choralar o‘z mevasini bermogda. Birgina 2024-yil yakunlari bo‘yicha qishloq xo‘jaligida umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 467 trillion so‘mni tashkil etdi. Buning katta qismi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlariga to‘g‘ri keladi. Bu sohadagi o‘shish nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilishi tabiiy hol.

2024-yildan faoliyati yo‘lga qo‘yilgan G‘allaorol tumanidagi “Agro In Vitro”majmuasi

yurtimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan muhim loyihalaridan. 20,4 gektar maydonda tashkil etilgan ushbu markaz tarkibida “In vitro” laboratoriyasi, yuqori texnologiyali issiqxonalar, ko‘chatzor va onalik bog‘i mavjud. Majmua nafaqat ilmiy va amaliy yechimlarning, balki mamlakat agrosanoati istiqbolining ham belgisi sanaladi.

“Agro In Vitro”loyihasi doirasida 72 nafar mahalliy mutaxassis ish bilan ta‘minlangan bo‘lib, ular orasida PhD ilmiy darajasiga ega olim, biotexnolog-agronomlar, magistr va laborantlar bor. Bunday mutaxassislar jamoasi nafaqat yuqori texnologiyalar bilan ishlash, balki uni doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatiga ega.

Har bir ko‘chat faqat tuproqqa qadab



“**2024-yildan faoliyati yo‘lga qo‘yilgan G‘allaorol tumanidagi “Agro In Vitro”majmuasi yurtimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan muhim loyihalaridan. 20,4 gektar maydonda tashkil etilgan ushbu markaz tarkibida “In vitro” laboratoriyasi, yuqori texnologiyali issiqxonalar, ko‘chatzor va onalik bog‘i mavjud.**



qo‘yilgan bir poya emas, u ortidagi ilm, mehnat, sabr va tajribaning samarasi. Shu jihatdan qaralganda, “Agro In Vitro” loyihasi o‘ziga xos bilim va innovatsiya fabrikasi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Loyiha doirasida 2026-yilda 2 million, 2027-yilda 5 million, 2030-yilga borib 10 million dona ko‘chat yetishtirish ko‘zda tutilgan. Bu bilan respublikamizdagi umumiy ko‘chat talabining kamida 5 foizi qoplanadi. Eng muhimi, “In vitro” usulida yetishtirilgan ko‘chatlar virus va kasalliklardan xoli, genetik jihatdan bir xil, yil davomida ekish imkoniyatiga ega va eng asosiysi, hosildorligi 40 foiz yuqori bo‘ladi. Bu esa fermer uchun samara, iste‘molchi uchun sifat, mamlakat uchun esa barqaror iqtisodiy o‘shish demakdir.

— Bugungi kunda yurtimizdagi intensiv bog‘lar maydoni 70 ming gektami tashkil etadi. 2030-yilgacha bu ko‘rsatkichni 110 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu har yili kamida 7-8 ming gektarga yangidan bog‘lar barpo etilishini anglatadi. Tabiiyki, shuncha miqdorda yangi mevali ko‘chatlarga ehtiyoj ham paydo bo‘ladi, — deydi “Agro In Vitro” MCHJ direktori o‘rinbosari Akmal Ablov o‘yev. — Bundan tashqari, har yili 7-8 million dona payvandlangan va urug‘siz uzum ko‘chatlari yetishtirilishi ham talab etilayapti. Bu jarayon bir qarashda oddiy ko‘rinsa-

da, aslida, muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, har bir yurtudoshimizning dasturxonida mahalliy va serhosil mevalar bo‘lishini kafolatlaydi. Eng muhimi, fermerlar uchun bu ko‘proq hosil, daromad, barqaror hayot manbadir.

XALQARO TAJRIBA — YUTUQLAR ZAMINI

Loyiha doirasida dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatilgan. Jumladan: “VISCON GROUP” (Niderlandiya) tomonidan MDH hududida yagona bo‘lgan “In vitro” laboratoriya tashkil etilgan. Yana ushbu mamlakatning “Gakon Netafim” kompaniyasi tomonidan dunyoda beshinchi o‘rinda turuvchi issiqxona qurilgan. Shuningdek, Italiya, Ispaniya va AQSH kompaniyalari bilan uzoq muddatli sheriklik yo‘lga qo‘yilgan.

Bu kabi xalqaro aloqalar mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni lokallashtirishda muhim omil bo‘lmoqda.

INNOVATSION LABORATORIYA — ILMIY SAMARA VA ISHONCH MANBAYI

Loyiha doirasida quyidagi navlar ustuvor ravishda yetishtirilmoqda: 35 xil danakli, 25 xil urug‘li, 30 xil manzarali, 11 xil uzum, 30 xil payvandtag, 18 xil rezavor mevalar. Ularning orasida ertapishar, kechpishar, o‘zini o‘zi changlatuvchi, suvsizlikka chidamli va yuqori hosildor navlar ham bor. Bu esa turfa iqlim sharoitida ham samarali bog‘dorchilikni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Loyihaning o‘zak nuqtasi laboratoriyadir. U zamonaviy agrobiotexnologiyaning yuragi bo‘lib, nafaqat yuqori sifati ko‘chatlari yetishtirish, balki ular orqali qishloq xo‘jaligini yangicha bosqichga olib chiqish vazifasini bajaradi. Ushbu laboratoriya texnik va strategik nuqtayi nazaridan ham bir necha afzalliklarga ega.

Avvalo, laboratoriya kompleksi ishlab chiqarish zanjirining to‘liq bosqichini o‘z ichiga oladi. Ya‘ni urug‘ materiallarini tanlab olishdan tortib, ularni laboratoriyada ko‘paytirish, ildizlantirish, issiqxonada parvarishlash va tayyor ko‘chat sifatida chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlar bir joyda jamlangan. Bu, o‘z navbatida, sifetni kafolatlash, tezkorlik va nazoratni ta‘minlash imkonini beradi.

Shuningdek, laboratoriya O‘zbekistonda xandon pista, kivi va manzarali daraxt ko‘chatlari shu usulda ko‘paytiruvchi yagona markaz sanaladi. Bu uning ekslyuziv vazifasi va ahamiyatini belgilab beradi. Italiya va Ispaniyadan keltirilgan sertifikatlangan In vitro materiallar asosida klonlash ishlari amalga oshiriladi. Ya‘ni har bir ko‘chatning genetik tozaligi va sifat standarti kafolatlangan. Ko‘chatlar torf asosidagi muhitda o‘stiriladi, bu esa ularning sog‘lom bo‘lishi va ochiq maydonga moslashishini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, yil davomida laboratoriyadan tayyor ko‘chatlar chiqarilishi mumkin, bu esa mavsumiy cheklavlarsiz ishlash imkonini beradi.

“**Laboratoriya tarkibidagi zamonaviy issiqxona maxsus filtrlash tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib, o‘simliklarga ideal oziqlanish muhitini yaratadi. Bir vaqtning o‘zida turli xil o‘simliklar bilan ishlay olishi — harorat, namlik va yorug‘likning avtomatik nazorati har bir navning individual talablariga mos sharoit yaratilishini ta‘minlaydi.**

Laboratoriya samaradorligini oshirish maqsadida uzum va mevali daraxtlarning ko‘rgazmali kolleksiyasi tashkil etilgan. Bu nafaqat ilmiy-amaliy tajriba maydoni, balki agrar ta‘lim uchun ham muhim manba hisoblanadi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mahalliy agronom va ko‘chatchilar uchun yilda ikki marta bepul o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Bu orqali nafaqat loyiha doirasidagi kadrlar salohiyati oshiriladi, balki butun mintaqadagi agrosanoat sohasiga bilim tarqalishi ta‘minlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, “Agro In Vitro” majmuasi qishloq xo‘jaligi sohasidagi eng muhim transformatsiyalardan biridir. Bunday loyihalar orqali O‘zbekiston o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash barobarida mintaqada agrar innovatsiyalar markaziga aylanish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ilm va tabiat uyg‘unligida barpo etilayotgan yangi bog‘larni nafaqat hosil manbai, shu bilan birga, umid, barqarorlik va taraqqiyot daraxtlari deyish mumkin.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



SUN'IY INTELEKTNING MILLIY MODELI

100 TA LOYIHA, 100 MING MUTAXASSIS:

sohada raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar yanada ko'payadi



Zamon bilan hamnafas

Kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib borayotgan sun'iy intellektga bugun ko'pchilik kelajak texnologiyasi sifatida qarayotgani bejiz emas. U iqtisod, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, umuman, barcha sohada samaradorlikni oshiradi, rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugun kundalik hayotimizda, masalan, biznes, sayohat, sog'liqni saqlash, bank, aloqa yoki ta'limda sun'iy intellekt yechimlari yaqqol ko'zga tashlanyapti. Smartfonlardagi FaceID, barmoq izi orqali biometrik identifikatsiya tizimi, ovozi yordamchilar, onlayn marketpleys va ijtimoiy tarmoqlardagi tavsiya etuvchi tizimlar sun'iy intellektning biz eng ko'p uchratadigan texnologiyalariga asoslangan yechimlarni o'z ichiga oladi. Ular qatorida so'nggi yillarda hayotimizga ChatGPT kirib keldi. Bu odamlarning sun'iy intellektga qiziqishini keskin oshirdi.

ASLIDA, U BUGUN PAYDO BO'LGAN TEKNOLOGIYA EMAS

Sun'iy intellekt bir necha yillardan buyon rivojlanib kelayotgan yo'nalish. Ilk bor 1956-yilda Germaniyaning Dortmund shahrida tashkil etilgan konferensiyada olimlar tomonidan sun'iy intellekt atamasi ilgari surilgan. 1997-yilda shaxmat bo'yicha jahon chempioni Kasparov birinchi marta sun'iy intellekt bilan



MOLIYAVIY HISOBOTLARGA AYTILISHICHA, BIZ SUN'IY INTELEKT INQILOBI MARKAZIDA TURIBMIZ. 2026-YILGA BORIB SUN'IY INTELEKT GLOBAL BOZORI 39,7 FOIZ O'SISHI PROGNOZ QILINMOQDA

kelajakda sun'iy intellektni rivojlantira olsa, yetakchilik maqomini saqlab qoladi. Shu bois, bugun davlatlar bu yo'nalishga katta sarmoya yo'naltiryapti.

Sun'iy intellekt texnologiyalari odamlarga xizmat ko'rsatmoqda va bu tobora ommalashib boryapti. U inson ishtirokisiz murakkab vazifalarni mustaqil bajaradi. Ayniqsa, matn, tasvir, kompozitsiya, video va arxitektura dizaynida uning alohida o'rni bor. Bu sohadaqi vositalar ijodkor hamda ishlab chiqaruvchilar uchun muhim resursga aylanmoqda.



KIBERTAHDIDLARGA QARSHI YORDAM BERA OLADIMI?

Axborot xavfsizligi kelajagida sun'iy intellekt roli qanchalik muhim?

— Har qanday yangi texnologiya kabi sun'iy intellektning ham ijobiy va salbiy jihatlari bor, — deydi Fazliddin Anvarov. — Misol uchun, mashhur odamning videosini soxtalastirish, u gapirmagan gaplarni gapirtira olishi mumkin. Faqat ekspertlarga bu kabi videolar farqini ajrata oladi. Hozirgi kunda firibgarlik turlari ko'payib borayotganini inkor eta olmaymiz. Plastik kartadan pul yechib olish kabi holatlarda ham sun'iy intellekt yo'llanilayotgani afsuslanarli. Bunday noxushliklarning oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ko'riyapti. Xususan, 2026-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan sun'iy intellekt sohasida etika kodeksi ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Ba'zi ekspertlar sun'iy intellektning insoniyatga katta foyda keltirishi hamda uni inson o'zining nazoratida ushlab turishi zarurligini ta'kidlaydi. U inson boshqaruvda



KELAJAKDA BA'ZI KASBLARNING YO'QOLISH EHTIMOLI YUQORILIGINI INKOR ETIB BO'LMAYDI. LEKIN QAYSI SOHA BO'LMASIN, SUN'IY INTELEKTNI BILGAN ODAM O'Z ISHINI YANA HAM MUKAMMALROQ BAJARADI.

bo'lsa, xavfsiz. Agar u inson omilisiz o'zini o'zi boshqarish darajasiga yetsa, bu muayyan xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Insonning xayoliga keladigan barcha narsa kelajakda sodir bo'lishi ehtimoli ortadi.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt qaysi sohada qo'llanilmasin, barchasi inson nazoratida. Misol uchun, sog'liqni saqlash sohasida bitta shifokor bir kunda 100 ta MRT tasvirini tahlil qilsa, sun'iy intellekt yordamida 500 ta tasvir tahlil etilishi mumkin. Shifokor har bitta tasvirni o'qib chiqib, u bilan tanishish shart emas, xulosani uning o'zi qo'yib beradi, shifokorning vazifasi tashxis to'g'ri qo'yildimi-yo'qmi, shuni tekshirish bo'ladi. Bu shifokorning vaqtini tejab, ish unumdorligini oshiradi. Lekin baribir



Lekin qaysi soha bo'lmasin, sun'iy intellektni bilgan odam o'z ishini yana ham mukammalroq bajaradi. Sun'iy intellekt uning ishini olib qo'ymaydi. Aksincha, ish unumdorligi, vaqtni tejashga yordam beradi. Shunchaki ulardan foydalanishni o'rganish kerak, xolos.

BARIBIR USTOZ KERAK

Mutaxassislar fikricha, sun'iy intellekt an'anaviy o'qitish usuli o'rni bosa olmaydi. Masalan, hozirgi kunda har kim internet orqali o'zi xohlagan yo'nalish bo'yicha ta'lim olishi, mutaxassis darajasiga yetishi mumkin. Ammo e'tibor bering, keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalari soni ortib boryapti. Sun'iy intellekt o'quvchilarga shaxsiy dasturini tuzish va qaysi sohalar iqtidori borligini prognoz qilish imkonini beradi. Har bir o'quvchining o'rganish tezligi, qobiliyati va qiziqishlari, o'zlashtirish ko'rsatkichidan kelib chiqib, kelajakda uning qaysi sohada muvaffaqiyatga erishish imkoniyati kengroqligini tahlil qiladi. O'qituvchilar esa yozma ishlar, testlar, yur vazifalarini o'rali avtomatik baholashi mumkin. Bu vaqtni tejash va shaxsiy muloqotga vaqt ajratish imkonini oshiradi. Ammo o'qituvchi sun'iy intellektga butunlay suyanib qolmasligi kerak. U yetakchi emas, o'rgatuvchi ekanini unutmasligi lozim. Talabalar esa fikrlash, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini unutmasligi shart.

Nogironligi bor talabalar uchun matnini ovoza aylantirish, ovozni matnga aylantirish, avtomatik subtitrlar kabi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu o'z o'rnida ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam bersada, uning o'rni to'liq egallay olmaydi. Baribir ustoz kerak.

E'TIBOR KUCHAYMOQDA

Prezidentimiz Yoshlar kuniga bag'ishlangan nutqida “Yana bir muhim yo'nalish — sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha bank-moliya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va energetikani ustuvor sohalar sifatida belgilab, 100 ta loyihani amalga oshiramiz. Bu borada yana katta-katta rejalarni bor. Xususan, qadriyatlarimiz va madaniyatimizni o'zida ifoda etadigan sun'iy intellektning milliy modelini ishlab chiqishni boshladik.

Aminmanki, bu ishlarimiz bog' tariximiz va zamonaviy yondashuvlarni o'zida uyg'unlashtirib, yoshlarning yangi kreativ g'oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tizim samara berishi uchun Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” dasturini ishga tushiryapmiz.

Shu yilning o'zida “AI Study” platformasi orqali kamida 100 ming yoshlarimiz sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganadi. Ishonaman, bu yangi loyiha hisobidan sun'iy intellekt sohasida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarimiz yanada ko'payadi”, dedi.

“Bir million sun'iy intellekt yetakchilari”ni “Bir million dasturchi” loyihasining mantiqiy davomi deiyish mumkin. Istiqbolli bu soha yoshlarni tobora ko'proq jalb etmoqda. Loyihadan ko'zda tutilgan maqsad — yoshlarning sun'iy intellektidan foydalanish ko'nikmasini oshirish. Misol uchun, oddiy ChatGPTdan foydalanishning ham o'ziga yarasha usullari bor. Mutaxassis ChatGPTdan yaxshiroq foydalanadi. ChatGPTga inson o'zi xohlayotgan ma'lumotlarni qanchalik to'liq, aniq kiritir olsa, u ham shunchalik aniq javob beradi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil yanvar oyida BAAga tashrifi doirasida ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish va ularni turli sohalariga muvaffaqiyatli joriy etishga qaratilgan strategik sheriklikni kengaytirish yo'llari ko'rib chiqilgan edi.

Natijada BAA hukumati bilan hamkorlikda “Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasi yo'lga qo'yildi. Ayni paytda ushbu loyihaning platformasi ishlab chiqilgan va unda beshta yo'nalish bo'yicha darsliklar joylashtirilgan. Maqsad — uch yil davomida bir million yoshning sun'iy intellektidan foydalanish ko'nikmalarini oshirish.

Hozirgi kunda AQSHning “Meta”, “NVIDIA” kompaniyalari o'quv qo'llanmalari, darsliklarini aistudy.uz platformasiga joylash masalasida hamkorlik bo'yicha muzokaralar o'tkazilmoqda.

Bu, birinchi navbatda, yoshlarning sun'iy intellektga qiziqishi, dasturiy mahsulotlardan yana ham samarali foydalanish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib xizmat qilayotgan bir paytda undan oqilona foydalanib, jamiyatning ijobiy rivojlanishiga yo'l ochadigan kreativ g'oyalarni ilgari suradigan qobiliyati mutaxassislarga talab yuqorilgicha qolmoqda. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish uchun yoshlar o'z malakalarini jahon mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashtirishi zarur. Bunda esa davlatimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan e'tibor muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Mamlakatimizda

14-iyuldan davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha test sinovlari boshlandi. Farzandlari oliyoghlarga hujjat topshirgan ota-onalar, abituriyentlar, umuman, ta'limga befarq bo'lmagan yurtdoshlarimiz uchun ayni jarayon qiziq, albatta. “Har yilgi imtihon, o'tadi-ketadi-da, biror narsa o'zgarib qolarmidi?” qabilidagi qarashlar esa bizni mutasaddilarga yuzlanishga undaydi.

Xo'sh, bu yilgi test sinovlarini o'tkazishda yangiliklar bormi?

Test sinovlari xususida gap ketar ekan, o'rganishni, albatta, abituriyentlar sonidan boshlaymiz. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 10 kun davom etadigan imtihonlarda qatnashish uchun joriy yil respublika bo'yicha 671 ming 397 abituriyent ro'yxatdan o'tdi. Ularning 426 ming 685 nafari (63,6 foizi) joriy yil maktabni tamomlagan. 244 ming 712 nafari esa (36,4 foizi) oldingi yillar bitiruvchilari bo'lib, gender tarkib bo'yicha 361 ming 19 (53,8 foiz) abituriyent xotin-qizlar, 310 ming 378 nafari (46,2 foiz) erkaklardir. Alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlariga 39 ming 307 abituriyent ro'yxatdan o'tgan. Test topshirish hududi bo'yicha eng ko'p abituriyentlar Toshkent shahri (115 ming 989 nafari), Samarqand (72 ming 305 nafari), Farg'ona (66 ming 383 nafari), Qashqadaryo (62 ming 484 nafari), Andijon (56 ming 25 nafari) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangiliklarga kelsak, bu yil abituriyentlar tomonidan qo'lga kiritilgan sertifikatlarining ahamiyati oshdi. Ya'ni test sinovni topshiriladigan barcha fanlardan milliy yoki xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar imtihonlardan ozod etilib, bevosita tanlov bosqichiga o'tkazilyapti. Bu imkoniyatdan joriy yil 678 nafari foydalanadi. Ushbu ko'rsatkich abituriyentlar o'z bilim darajalarini rasmiy sertifikatlar orqali



Abituriyent — 2025



tasdiqlashda yuqori faollikka erishganidan dalolat. O'rganishlar jarayonida, xususan, 85 ming 140 yosh umumta'lim fanlaridan, 58 ming 216 nafari esa chet tillardan milliy yoki xalqaro sertifikatga ega ekan ma'lum bo'ldi. 2024-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 13 ming 180 va 44 ming 834 nafarni tashkil etgan edi.

Ro'yxatdan o'tish jarayonida abituriyentlar tomonidan taqdim etilgan xalqaro sertifikatlarining 18 ming 854 tasi haqiqiy deb topildi va tan olindi. 3370 ta sertifikat esa belgilangan talablarga javob bermagani,

ya'ni darajasi yoki turi mos kelmagani, amal qilish muddati tugagani yoxud haqiqiyliqi tasdiqlanmagani sababli qabul qilinmadi.

Shuningdek, joriy yildan fanlar majmuasida chet til birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul maxsus tartibda amalga oshirilmoqda. Ya'ni bu yo'nalishlarga faqat xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar qabul qilinadi. Ushbu talabga mos fanlar majmuasini tanlagan va belgilangan sertifikatga ega abituriyentlar soni 22 ming 41 nafarni tashkil etdi.

Bu yildan kasbiy ijodiy imtihon o'tkaziladigan yo'nalishlar bo'yicha abituriyentlarga test sinovlari natijalaridan so'ng aynan imtihon topshirgan oliyoghini emas, o'sha yo'nalish mavjud boshqa oliyoghlarni ham tanlash imkoni berildi.

Bundan tashqari, test jarayonlarida imkoniyati cheklangan, xususan, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan abituriyentlarga qulaylik yaratish maqsadida 100 ga yaqin surdotarjimon bilan shartnoma tuzilib, ular test sinovlariga jalb etildi. Imtihonlarni o'tkazish

uchun tanlab olingan 65 ta binoda bir kunda ikki smenada, jami 2338 ta guruhda 70 ming 140 abituriyentni test sinovlaridan o'tkazish imkoniyati yaratildi.

Test sinovlarining dastlabki ikki kuni kutilganidek o'tdi. Imtihon topshiruvchilar va ularning ota-onalari uchun sharoitlar yaratilgan. Sinovlar o'qitilgani ta'minlash maqsadida 3 mingdan ortiq jamoatchilik nazoratchisi jalb etildi.

Bakalavriat bosqichidagina emas, magistraturada ham imkoniyatlar kengaydi. Ayni paytda 2025/2026-o'quv yili uchun davlat OTMlarining magistratura mutaxassisliklariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni topshirish jarayoni davom etyapti (my.edu.uz platformasi orqali 30-iyulga qadar (shu kuni ham). Talabgorlarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida Davlat qabul komissiyasining tegishli bayoni bilan yurtimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallarida 2024/2025 o'quv yilida bakalavriatni tamomlayotgan bitiruvchilarga diplomlar avgust-dekabr oylari oraliqida berilishini inobatga olib, ularga joriy yildan o'qishni muvaffaqiyatli tugatgani haqidagi akademik ma'lumotnoma va transkript asosida magistr.edu.uz onlayn tizimi orqali davlat OTMlari magistraturasiga ariza topshirishiga ruxsat berildi.

2025/2026-o'quv yilida ijtimoiy himoyaga muhtoj toifaga mansub abituriyentlarga yana bir muhim yengillik yaratildi. Ya'ni davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi abituriyentlar uchun alohida tartib joriy qilindi. Endi ushbu toifadagi abituriyentlardan xorijiy til bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikat talab qilinmaydi. Agar ularning bakalavr diplomidagi o'rta ball 100 ballik tizimda 71 va undan yuqori yoki 5 ballik tizimda 4 va undan yuqori bo'lsa, qo'shimcha davlat granti asosida magistraturaga o'qishga qabul qilinadi.

Imtihonlar bilan bog'liq yangiliklar barobarida vazirlik axborot xizmati 15-iyuldan mustaqil izlanuvchilik, o'qishni ko'chirish uchun ham hujjatlar qabuli boshlanganini ma'lum qildi. Aytish joizki, turmush qurib, turmush o'rtog'ining doimiy yashash hududiga ketayotgan, ota-onasi yoki turmush o'rtog'ining

ish joyi o'zgarib, o'qishini ko'chirishga tegishli vazirlikdan tavsiyanoma olingan talabalarga o'qishni ko'chirishga ruxsat beriladi. Ular imtihonsiz o'qishini ko'chira oladi. Xorijda va xususiy universitetda o'qiyotgan talabalar esa imtihon bilan o'qishni ko'chiradi.

Oliyoghlarga kira olmagun 11-sinf bitiruvchilari uchun bu yildan yaxshi imkoniyat bor. Endilikda O'zbekistonning 14 ta texnikumida BTEC xalqaro ta'lim dasturi asosida 100 foiz grant asosida o'qish imkoniyati mavjud. Xalqaro dastur 9-11-sinfni tamomlagan yoshlarga xalqaro darajadagi kasb egasi bo'lish, Buyuk Britaniyada amaliyot o'tash, 70 dan ortiq davlatda tan olinadigan diplom olish, Evropa, Osiyo va Amerikada o'qish va ishlash imkoniyatini berishi bilan ahamiyatli. Hujjatlar 20-iyulga qadar my.edu.uz platformasi orqali onlayn tarzda topshiriladi. Shu kungacha 889 ta ariza kelib tushgan.

Oliyoghlarga kirish uchun test sinovlari o'tayotgan ayni pallada akademik litsey va texnikumlarda ham ish qizg'in. 2025/2026-o'quv yili uchun 73 ta akademik litseyga qabul parametrlari 15 ming 262 ta etib belgilandi. Joriy yil 10-iyundan 10-iyulga qadar my.edu.uz elektron platformasi orqali hujjatlar qabul qilindi. Qabul jarayonlari yakuniga ko'ra, jami kelib tushgan arizalar soni 49 ming 362 tani tashkil etmoqda.

2025/2026-o'quv yili uchun jami 599 ta texnikumga 370 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha jami 312 ming 479 ta (shundan 205 ming 939 tasi grant) qabul parametrlari tasdiqlangan. 1-iyuldan umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha arizalar qabul qilish boshlandi. 15-iyul holatiga ko'ra, 143 ming 450 ta ariza kelib tushgan. Qabul 20-iyulga qadar davom etadi.

Ta'limning qaysi bo'g'ini, qaysi yo'nalishida bo'lmasin, yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar mamlakatimiz ta'lim taraqqiyotiga xizmat qilishi ko'zda tutiladi. Ertamiz egalari esa ulardan o'z vaqtida va unumli foydalana olsa bas.

Munojat MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Bir zamonlar kamina “Seni yotlar tugul hatto qilurman rashk o’zimdanda ham, uzogroq termulib qolsam, bo’lurman g’ash ko’zimdanda ham” degan satrlarni yozib, o’zimcha kashfiyot qilgandek, hech kim aytmagani gapni aytgandek kerilib yurgan edim. Hazrat Navoiy besh yuz yil avval bu tashbehlarini ming bor go’zalroq qilib aytgan ekanlar.

Yonida el ko’rsam, o’q sanchilmasunmu jonima,
Menki g’ayratdin ravo ko’rman ani o’z yonima.
Ya’ni yor yonida boshqalarni ko’rsam, jonimga nega o’q sanchilmasin? Men yorni hatto o’zimdanda ham qizg’anib, yonimda ko’rmogga rashk qilaman. Bunday so’zlarni o’qigach, hayratdanda yoqa tutmay, Navoiy qalimga olmagani biror badiiy tasvir, biror insoniy tuyg’u qolganmikan, deya savol bermay iloj yo’q.
Qilurman rashk o’zimdanda ham, ma’lum bo’ldiki, Hazratning cho’ntagidan tushib qolgan gap ekan. Qarangiki, bo’lurman g’ash ko’zimdanda ham degan satrimiz ham yangilik bo’lib chiqmadi.
Ko’z qorasidin yozay dermen bitig, hayhotkim,
Kuydurur g’ayratki, men mahrumu ul ko’rgay seni.
Shoir ko’z qorasini siyoh qilsamu xat bitib yorga yuborsam deydi. Lekin yor diydorini o’zi emas, ko’z qorasidan bitilgan maktab ko’radi, deya o’z ko’zidan ham rashk qiladi. Ajab, keyingi satrimizning ham rangi o’chdi-qoldi. Tashkin shuki, o’zim bilmagan holda Hazratga nazira bog’labman. Yaxshiki, mumtoz adabiyotimizda ulug’ ustozlar so’zini takror aytish ko’chirmachilik sanalmaydi, balki ulug’larga ixlos deb qabul qilinadi va tatabbu san’ati deb ataladi.
Ushbu baytlardan menga yana bir yangilik g’ayrat so’zining asl ma’nosi bo’ldi. Yuqorida keltirilgan ikki baytga yana bir e’tibor qaratimg. Ularning ikkisiida ham g’ayrat — rashk, qizg’anish ma’nolarida kelgan. Biz bu so’zni butunlay boshqa ma’noda ishlatamiz. Shaxdam, tinib-tinchimas, ishdan insonni g’ayratli deymiz. Ajabo, rashk bilan

“ARABCHA BU SO’ZNING O’ZAGI — G’AYR. G’AYRI ODDIY, G’AYRI DIN, G’AYRI AXLOQIY KABI SO’ZLARIDA ZID MA’NOSIDA, G’AYR, AG’YOR SO’ZLARIDA BEGONA, RAQIB MA’NOSIDA, G’AYIRLIK DEGANDA DUSHMANLIK, HASAD MA’NOLARIDA KELADI. LEKIN BU SO’ZLARINING BIZ TUSHUNGAN G’AYRATGA ALOQASI NIMA?”



Birov gapimizga javob bermasa, og’iz ochib so’z aytmasa, indamadi, deymiz. Bu ishini odat qilgan odam indamas deyiladi. Indash — chaqirish, chorlash, taklif qilish degani. Bu so’zning asl ma’nosi hozirgi tilimizda undash, undamak deyiladi. Indash esa, asosan, so’lishsizlik shaklida ifodada etiladi. Indadi deb kamroq, indamadi deb ko’proq aytamiz. Chunki bu so’zga ehtiyojimiz bor. Gapirmadi, sukut saqladi, jim qoldi, degandan ko’ra indamadi, deyish oson va qulay.

Erkin VOHIDOV, O’zbekiston xalq shoiri

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

BUASSIS:
O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05



O’ZGARISHLARGA HAMNAFAS YASHASH

vaqtdan to’g’ri va samarali foydalanishni talab qiladi

NEGA TEZ O’TYAPTI?

So’nggi yillarda nega vaqt tez o’tyapti, kunlar, oylar, yillar qisqargandek tuyulayapti, degan savollarni bir-birimizga ko’p beryapmiz. Aslida, telefonlar, ijtimoiy tarmoqlar, ulardan keladigan ma’lumotlar sabab miyamiz shoshilib ishlayapti. Fikrimiz bo’linib, diqqatimiz parchalanmoqda va vaqtini idrok qilishimiz tezlashyapti. Soatlab telefonga termilishimiz, ijtimoiy tarmoqlarda beaql suzishimiz, boshqalarning hayotini kuzatishimiz — bularning hammasi qimmatli vaqtimizni “yeb qo’ymoqda”.

Aslida, vaqt emas, unga munosabatimiz o’zgargan. Hayot tezlashgani yo’q, biz hayotni to’g’ri his qila olmayapmiz. Shuning uchun vaqtini sekinlashtirishning yagona yo’li kunim o’tsa bo’ldi deb emas, kunimni foydali, mazmunli o’tkazay, orqamdan bir yaxshilik qolsin deb yashashdir.

Vaqt hamma zamonlarda qadri bo’lgan, bugun shiddat bilan ilgariyotgan davrda esa uning qiymati yanada oshdi. Raqobat kuchaygan, axborot oqimi shamol kabi yelayotgan, istiqbolli o’zgarishlar, nurli kelajakka qaratilgan yangilanishlar har kuni sodir bo’layotgan shu kunlarda vaqt insonning eng muhim kapitaliga aylandi. Bu odamlardan o’zgarishlarga hamnafas bo’lishni, o’tayotgan vaqtdan to’g’ri va samarali foydalanishni talab qiladi.

Xo’sh, bu borada nuroniyalar va olimlar nima deydi?



Manzura VALIYEVA, Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi “Yangiobod” mahalla fuqarolar yig’ini raisi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi:

“Eng yaxshi ochko’zlik vaqtga nisbatan ochko’zlikdir”

Hakima SALOMOVA, falsafa fanlari doktori, professor:

— 50 yillik pedagogik faoliyatim tufayli xulosaga keldimki, vaqt insonga berilgan eng bebaho ne’mat. Boshqa ne’matlarni qayta topish, o’rmini to’ldirish mumkin, biroq o’rgan vaqtini orqaga qaytarib bo’lmaydi. Afsuski, umriming mazmun-mohiyatini ana shu fursatlar tashkil etishini odamlar paytida angliq olmaydi. Ar-Roziyning fikricha, vaqt “avval” va “keyin” degan o’lchovlar bilan o’lchanadi. Vaqt absolyut va nisbiy ko’rsatkichlarga ega. Vaqt harakatdagi materiya va makon kabi abadiydir, demak, u yakuni yo’q mangulirikdir. Vaqt va zamon deganda abadiylik va nisbiylilikni farqlamoq zarur.

Arastuning shogirdi Feofrast (Teofrast ham deyiladi) “Eng yaxshi ochko’zlik vaqtga nisbatan bo’lgan ochko’zlikdir”, deydi. Yangi O’zbekiston yoshlar ko’lida, ammo ba’zi yoshlarimiz qalbid mehnatga muhabbat kam, qo’llarida esa kitob o’rniga telefon. Kitob o’qimagan talaba qanday kasb egasi bo’la oladi? Hatto ularning aksari topishmoq, masal, she’r, monolog aytishni bilmaydi. Kitob o’qish tufayli Beruniy Yerning har qanday nuqtasida turib qiblaning qayerdaligini, yer radiusi, mineralarning solishtirma og’irligi, og’riq qoldiruvchi dorilarning me’yorini aniqlagan.

MUHIM RESURS

Davlatimiz rahbarining “Bugun yo’qotilgan vaqt va imkoniyatlarni ertaga tiklab bo’lmaydi”, degan so’zlari zahirida ulkan ma’no bor. Zero, yangi O’zbekistonda yashash faqat guvoh bo’lib turish emas, faol ishtirokchi bo’lishdir. Ishtirok uchun esa eng muhim resurs vaqtdir. Vaqt faqat taqvimdagi kun emas, balki yurtimiz kelajagiga mas’uliyat, shaxsiy rivojlanishga qo’yilgan mezon hamdir. Bir donishmand “Vaqt dangasaning dushmani, serg’ayratning do’shti”, degan ekan. O’tayotgan vaqtimizni ma’no bilan to’ldirish yoki behuda sarflash, albatta, o’zimizning qo’limizda ekanini unutmaylik.

Hozir “Vaqtim yo’q, ishim ko’p, ulgura olmayapman”, deyishini odat qilganmiz. Hech narsaga toqatimiz yo’q, hatto yaqinlarimizga vaqt ajrata olmay qoldik. Bahona — vaqt yetishmasligi. To’g’ri, bugun zamon shiddat bilan olg’a intilyapti. Shunga monand qadam ham tashlayapmiz. Ammo bir zum to’xtab o’ylab ko’raylik-chi, rostdan ham vaqtimiz yo’qmi?

Soatlab ijtimoiy tarmoqlarda qolib ketishga vaqtimiz bor. Befoyda suhbatlar, bema’ni

Zamonni anglash xalqqa xizmat demakdir

— Bugun yangi O’zbekiston iborasi shunchaki siyosiy shior emas, balki o’zgarishlar, yangilanishlar, imkoniyatlar va ehtiyojlar ifodasidir. Ertalab uyg’onish, kitob o’qish, yangi ko’nikmalarni egallash, kasb o’rganish, farzand tarbiyasi, mehnat, amal — bularning barchasi vaqt bilan bog’liq. Vaqtini idrok etish aslida zamonni anglashdir. Zamonni anglash esa xalqqa xizmat qilish, vatan taraqqiyotiga hissa qo’shish degani.

Ammo bu fursatlardan unumli foydalanish yo foydalanmaslik

Fursat yo’q, azizlar!

Jobir ELOV, Buxoro viloyati bosh imom-xatibi, Mir Arab oliy madrasasi rektori:

— Vaqt eng qimmatli va eng tez sarflanadigan ne’mat, yo’qotgandan so’ng qayta topib bo’lmaydi. Shu sabab har bir lahza unumli o’tkazish, maqsadga yo’naltirilgan holda foydalanish hayotda muvaffaqiyatga erishishning asosiy shartidir.

Alloh inson hayotiga zarur barcha narsalarni, jumladan, umrini, vaqtini belgilab, hisoblab, chegarasi, qadr-qiymati bilan yaratadi. Bu haqda Qur’oni karimda xabar berib bunday deydi: “Uning dargohida har bir narsa o’lchovlidir”. Islom dinida vaqtning qadri baland bo’lgani uchun ham tongda erta uyg’onishga targ’ib qilingan. Odamzodning kundalik hayoti erta tongdan boshlanishi, to quyosh chiqqunicha bo’lgan vaqtda baraka borligiga alohida ahamiyat berilgan.

Ba’zi donishmandlar “Manfurlikning alomati vaqtini zoye qilishdir”, “Vaqtning ketdi — baxting ketdi”, degan. Ha, vaqtini g’animat bilmaslik katta gunohdir. Vaqtning qadriga yetish, uni behuda sarflamaslik uchun nima qilish kerak? Avvalo, vaqtini his qilish uchun ma’naviy tafakkur zarur. Yaratganning bergan ne’matlari shukrini ado etishga bir insonning umri yetmaydi. Shundoq ekan, vaqtini zoye o’tkazishga fursat yo’q, azizlar! Behuda o’tkazilgan har bir daqiqa

oxiratda insonning zarariga hujjat bo’lishini anglamog’imiz shart.

Hasan Basriy rahmatullohi alayh hikmatlaridan birida bunday deyiladi: “Har kuni tong yorishganda Haq tomonidan bir jarchi “Ey odam bolasi! Men yangi kumman, sening barcha amalingga guvohman. Mendan solih amallar qilib foydalanib qol, chunki to qiyomatgacha qaytmayman”, deb jar soladi. “Qiyomat yaqinlashgan sari vaqt qisqaradi”, deydi. Ya’ni ma’naviy nuqtayi nazardan vaqtning tez o’tishi insonlar hayotida baraka, mazmun va haqiqiy foydali bandlik kamayishi bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham vaqtning qadriga yetaylik, bir-birimizga muhabbatli bo’lib yashash uchun vaqtimizni yaqinlarimizdan, do’stu birodarlarimizdan ayamaylik.

seriallar, mayda-chuyda fisqu fasod gaplarni eshitishga, qimmat kafe-restoranlarga borishga vaqt topamiz. Ota-onamizning holini so’rashga, oilaviy sayr qilishga, farzandlarimiz bilan yurakdan gaplashishga, do’st va hamkasblarimizdan hol so’rashga esa negadir vaqtimiz yo’q.

O’ylab ko’rsangiz, muammo vaqtda emas, qalbmizdagi qadrlash hissi pasayganida, yaqinlarimiz bilan muloqot orqa rejaga o’tib qolganida. Holbuki, aynan shu yaqinlar, do’stlar, ustozlar hayotimizning eng muhim qismidir. Shuning uchun “vaqtim yo’q”, deb o’zimizni aldamaylik. Agar yurakda chin niyat bo’lsa, vaqt topiladi.

Bir daqiqali xabar, ikki daqiqali qo’ng’iroq, besh daqiqali ziyorat inson ko’nglini obod,

Gulichehra DURDIYEVA, “Yangi O’zbekiston” muxbiri